

O‘ZBEKISTONDA MOLIYA TIZIMIDAGI ISLOHOTLARNING KONSTITUTSION ASOSLARI

Ismoilov Muhammadqodir Ulug‘bek o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston Respublikasida 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning moliya sohasiga oid normalari, ularning davlat budjetini shakllantirish va ijro etish tizimiga, fiskal siyosat va shaffoflikka, mahalliy budjetlar moliyaviy mustaqilligiga hamda iqtisodiy xavfsizlikka ta’siri tahlil qilinadi. Yangi konstitutsiyaviy normalar davlat budjeti va davlat qarzi ustidan parlament hamda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, fuqarolar uchun budjet ma’lumotlarining ochiqligini ta’minlash, soliq siyosatini adolat va barqarorlik prinsiplari asosida olib borish, shuningdek, davlat moliyasini boshqarishning institutsional asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

Kalit so‘zlar: davlat budjeti, fiskal siyosat, budjet shaffofligi, iqtisodiy xavfsizlik, mahalliy budjetlar, davlat qarzi, jamoatchilik nazorati.

КОНСТИТУЦИОННЫЕ ОСНОВЫ РЕФОРМ ФИНАНСОВОЙ СИСТЕМЫ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация: В статье анализируются финансовые нормы новой Конституции Республики Узбекистан, принятой в 2023 году, их влияние на систему формирования и исполнения государственного бюджета, налогово-бюджетную политику и прозрачность, финансовую самостоятельность местных бюджетов и экономическую безопасность. Новые конституционные нормы направлены на усиление парламентского и общественного контроля за государственным бюджетом и государственным долгом, обеспечение открытости бюджетной информации для граждан, проведение налоговой политики, основанной на принципах

справедливости и устойчивости, а также укрепление институциональных основ управления государственными финансами.

Ключевые слова: государственный бюджет, фискальная политика, прозрачность бюджета, экономическая безопасность, местные бюджеты, государственный долг, общественный контроль.

CONSTITUTIONAL BASIS OF REFORMS IN THE FINANCIAL SYSTEM IN UZBEKISTAN

Abstract: The article analyzes the financial norms of the new Constitution of the Republic of Uzbekistan adopted in 2023, their impact on the system of formation and execution of the state budget, fiscal policy and transparency, financial independence of local budgets, and economic security. The new constitutional norms are aimed at strengthening parliamentary and public control over the state budget and state debt, ensuring the openness of budget information for citizens, conducting tax policy based on the principles of justice and sustainability, and strengthening the institutional framework for public finance management.

Keywords: state budget, fiscal policy, budget transparency, economic security, local budgets, public debt, public control.

Kirish

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan siyosiy-huquqiy islohotlar jarayonida Konstitutsiyaning yangi tahririni qabul qilish muhim bosqich bo‘ldi. 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan umumxalq referendumi asosida Konstitutsiyaning yangilangan tahriri qabul qilinib, unda inson huquqlari, ijtimoiy davlat, kuchli fuqarolik jamiyati bilan bir qatorda, davlat moliyasini boshqarish, budjet jarayonlarining shaffofligi, moliyaviy intizom va iqtisodiy barqarorlikka doir normalar ham sezilarli ravishda qayta ko‘rib chiqildi va kengaytirildi. Shuningdek, ilg‘or xalqaro tajriba asosida Davlat budjeti loyihasi ilk bor qonun shaklida tasdiqlandi hamda vazirlik va idoralarning vakolat hamda mas’uliyatini kuchaytirish maqsadida budjet xarajatlari avvalgidek sohalar kesimida emas,

balki bevosita davlat organlari darajasida tasdiqlanadigan tartib joriy etildi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti xarajatlari Oliy Majlis palatalari tomonidan, mahalliy budjetlar esa tegishli xalq deputatlari kengashlari tomonidan ko'rib chiqib tasdiqlash amaliyoti yo'lga qo'yildi.

Bundan tashqari, mamlakatda soliq sohasida tub islohotlar o'tkazilib, iqtisodiyotga tushadigan soliq yukining kamayishiga erishildi, soliq turlari maqbullashtirildi va qo'shilgan qiymat solig'i bazasini kengaytirish orqali QQS zanjirining to'liq shakllanishi ta'minlandi. Soliq kodeksida soliqlarni asossiz undirish holatlari uchun soliq organlarining javobgarligi kuchaytirildi, ilg'or xorijiy tajribada qo'llaniladigan zamonaviy soliq nazorati mexanizmlari joriy qilindi hamda soliqlarni hisoblash va to'lash tartiblari soddalashtirildi.

Shu bilan bir qatorda, olib borilgan tahlillar davlat moliyasini boshqarish tizimida o'rta va uzoq muddatli budjet rejalashtirish bo'yicha belgilangan maqsadlarga to'liq erishish uchun bajarilishi lozim bo'lgan ishlar ko'pligini ko'rsatmoqda. Xususan, budjet tashkilotlari, muassasalari va davlat ulushi mavjud korxonalarining hisobini mustaqil yuritilishi, shuningdek vazirlik va idoralarning budjetdan tashqari mablag'larining konsolidatsiyalashgan budjet tarkibida aks ettirilmasligi budjet mablag'larining to'liq shaffofligini ta'minlashga to'sqinlik qilib kelmoqda.

Mahalliy budjetlar mustaqilligini belgilash imkonini beruvchi budjetlararo transfertlarni hisoblashning aniq va oshkora metodologiyasi ishlab chiqilmagan[1]. Davlat xaridlari va investitsiyalarini boshqarish samaradorligini oshirish, davlat qarzini boshqarish strategiyasini yaratish, davlat aktivlari va majburiyatlarini boshqarishda tavakkalchiliklarni baholashning samarali tizimini joriy etish zarurati mavjud.

Ko'rsatib o'tilgan muammolar va kamchiliklar amal qilayotgan budjet siyosatini xolis va ishonchli baholash imkonini cheklaydi hamda budjet xarajatlarini o'rta muddatli davlat dasturlari bilan tizimli tahlil qilishga to'sqinlik qiladi. Shu sababli, bugungi kunda davlat moliyasini barqarorlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni faollashtirish dolzarb hisoblanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada davlat budjetining shakllantirilishi va ijro etilishi, budjet tizimi tuzilmasi, davlat moliyasini boshqarishning asosiy prinsiplari alohida normalar orqali belgilab qo'yilgan. 1992 yil qabul qilingan O'zbekiston Konstitutsiyasida

122-moddasida shunday yozilgan: “O‘zbekistonning Davlat budjeti Respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iborat.” Yangi tahrirdagi konstitutsiyaning 148-moddasida, – “O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti respublika budjetidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi budjetidan va mahalliy budjetlardan iboratdir. O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetini shakllantirish hamda ijro etish tartib-taomillari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida amalga oshiriladi. Fuqarolar va fuqarolik jamiyati institutlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetining shakllantirilishi hamda ijro etilishi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshiradi. Fuqarolarning hamda fuqarolik jamiyati institutlarining budjet jarayonida ishtirok etishi tartibi va shakllari qonun bilan belgilanadi”, deb qo‘shimchalar kiritilgan. Ya’ni Davlat budjetining tuzilishi Konstitutsiyada belgilangan bo‘lib, bu uning huquqiy maqomini mustahkamlaydi hamda budjet tizimining barcha bo‘g‘inlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlarning yagona tamoyillar asosida olib borilishini kafolatlaydi. Davlat budjetini shakllantirish va ijro etish mexanizmlari ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida tashkil etilishi konstitutsiyaviy talab hisoblanadi. Ochiqlik prinsipi budjet loyihalarining jamoatchilikka e‘lon qilinishi, budjet parametrlarining asoslari bilan birga ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritilishi, budjet ijrosi haqida choraklik va yillik hisobotlarning e‘lon qilinishi orqali namoyon bo‘ladi. Shaffoflik esa nafaqat ma’lumotlarning ochiqqligini, balki ularning ishonchliligi, to‘liqligi va fuqarolar tomonidan erkin tahlil qilinishi mumkinligini anglatadi. Aynan ushbu tamoyillar davlat moliyasini boshqarishda korrupsiya xavfini kamaytiradi, mansabdor shaxslarning javobgarligini oshiradi va budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishini ta’minlaydi[2].

Jamoatchilik nazorati institutining konstitutsiyaviy darajada e’tirof etilishi fuqarolarning davlat moliyasi ustidan kuzatuv olib borish huquqini kengaytiradi va davlat organlari faoliyatining hisobdorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayon budjet demokratiyasining shakllanishi, fuqarolarning fiskal jarayonlarda bevosita ishtiroki, budjet qarorlarining sifatini oshirish hamda budjet siyosatining haqiqiy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashuvchanligini ta’minlash kabi muhim jihatlarni o‘z ichiga oladi. Fuqarolarning budjet jarayonlarida ishtirok etish tartibi va shakllarining qonun bilan belgilanilishi esa ushbu ishtirokning institutsional asosda amalga oshirilishini kafolatlaydi. Mazkur huquqiy

mexanizm davlat va jamiyat o'rtasidagi ochiq muloqotni kuchaytiradi, budget jarayonlarining demokratik legitimligini oshiradi va iqtisodiy samaradorlikka erishishga xizmat qiladi. Shu bois Konstitutsiyada belgilangan ochiqlik, shaffoflik va jamoatchilik nazorati tamoyillari O'zbekistonning zamonaviy fiskal siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, davlat moliyasini boshqarishda demokratik yondashuvni kuchaytiruvchi tizimli asos sifatida e'tirof etiladi. Natijada quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- Davlat budjeti loyihasi va qabul qilingan budget bo'yicha asosiy parametrlar ommaviy axborot vositalarida va elektron platformalarda e'lon qilinmoqda[3];
- "Fuqarolar uchun budget" nashrlari budget ma'lumotlarini sodda, tushunarli ko'rinishda aholiga yetkazmoqda[4];
- "Ochiq budget" portali orqali fuqarolar infratuzilma loyihalariga ovoz berish, budget mablag'lari sarfini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lmoqda [5].

Yangi konstitutsiyaviy normalar mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy vakolatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Mahalliy Kengashlar o'z hududining budgetini tasdiqlash, mahalliy soliqlar va yig'imlar mahalliy budgetga tushirish, hududiy rivojlanish dasturlarini moliyalashtirish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilish huquqiga ega[6]. Bu:

- mahalliy budgetlar daromad bazasini kengaytirish;
- hududlar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni qisqartirish;
- hududlarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Moliyaviy mustaqillikning konstitutsiyaviy kafolatlanishi mahalliy hokimiyat organlarini ham mas'ul, ham tashabbuskor bo'lishga undaydi.

Mahalliy budgetlarning konsolidatsiyalashgan budgetdagi ulushi, ularning xarajat tuzilmasidagi ijtimoiy yo'naltirilgan yo'nalishlar (ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya) bo'yicha ahamiyati ortib borayotgani xalqaro hisobotlarda ham qayd etilmoqda.

Fiskal barqarorlik, budget taqchilligi va davlat qarzi ustidan qat'iy nazorat, soliq tizimining barqarorligi, ijtimoiy majburiyatlarni moliyalashtirish imkoniyati davlatning iqtisodiy xavfsizlik darajasini belgilovchi asosiy omillar qatoriga kiradi. Bu jihatlar ichki va tashqi makroiqtisodiy shoklarga nisbatan iqtisodiy tizimning barqarorligini oshiradi,

investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar ishonchini mustahkamlaydi, aholi farovonligini oshirishga qaratilgan ijtimoiy dasturlarni uzoq muddat moliyalashtirish imkonini yaratadi.

Xulosa

O'zbekistonda Konstitutsiyaning yangi tahriri qabul qilinishi davlat moliyasini boshqarishning huquqiy asoslarini tubdan takomillashtirdi. Soliq tizimining maqbullashtirilishi, budjet jarayonining shaffofligi va jamoatchilik nazorati mexanizmlarining kengaytirilishi fiskal boshqaruv sifatini oshirdi. Shu bilan birga, budjetdan tashqari mablag'larning konsolidatsiyasi, budjetlararo transfertlar metodologiyasi, davlat investitsiyalari va xaridlari ustidan nazorat kabi yo'nalishlarda hali yechilishi lozim bo'lgan vazifalar mavjud.

Umuman olganda, O'zbekistonda moliya sohasida amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar iqtisodiy xavfsizlikni mustahkamlash, davlat va jamiyat o'rtasidagi moliyaviy ijtimoiy shartnomani yangilash, bozor iqtisodiyoti tamoyillariga mos, shaffof va hisobdor fiskal tizimni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, ularning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/ma-alliy-byudzhethlar-mustaqilligini-oshirish-masalalari>
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 2023-yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining 2023-yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlari (konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari va xarajatlari).
4. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi. *Fuqarolar uchun budjet* nashrlari, 2023–2024-yillar.
5. Samandarova G. *To the question of openness and transparency of the budget system in Uzbekistan*, 2023.
6. Turdiyev B. *Policy Development Through Normative Legal Acts in Uzbekistan*, 2024.